



## MENING QISHLOG'IM TARIXI

**Abdurahimov Nodirbek Muhammadjon o'g'li<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Andijon viloyati Asaka tumani 9-umumta'lim maktabi o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5917596>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15 -yanvar 2022  
Ma'qullandi: 20 - yanvar 2022  
Chop etildi: 25 -yanvar 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Farg'ona vodiysi, Andijon, qadimgi poytaxt, samoviy ot, ilm-fan, sport, dehqonchilik, yo'lboshchi.*

Darhaqiqat, inson o'zligini anglashi uchun o'z yurti, o'z nasli, tarixini, shu kunlarga olib kelgan ota - bobolarining bosib o'tgan yo'li va ular chekkan zaxmatlarini bilmog'i va o'z yuragida his etmog'i lozim. „ Vatan ostonadan boshlanadi ” - bu ibratli maqolga amal qilgan holda men ham Vatanning kichik o'lkalaridan biri bo'lgan ona qishlog'im tarixini o'rgandim. Bu esa o'zlikni anglashga bo'lgan dastlabki, qadam deb o'layman. Qishlog'im nomi - Axtachi. Uning tarixi bevosita Farg'on vodiysi, Andijon va Asaka kabi tarixiy joylarga bog'liq. Ma'lumki, miloddan avvalgi II-I asrlarda qudratli Dovon davlati hukumronlik qilgan. Dovon davlati hozirgi Farg'ona vodiysiga tog'ri keladi. Uning poytaxti – „Ershi” shahri hozirgi Marhamatdir. ( Asrlar o'tishi bilan shaharlar boshqa yerlarga ko'chib o'tib, xozirgi Mingtepa saqlanib qolgan). Hozirgi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada O'zbekistonimizning Andijon viloyatidagi chekka bir Axtachi qishlog'i haqida va uning uzoq tarixi haqida batafsil ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari shu qishloqdagi bir qator fidoiy insonlar haqida ham yoritilgan.*

Asaka hududi bevosita qadimgi poytaxt – Ershi shahriga yaqin joylashgan. Qadimgi Xitoy sayyohi Chan Sizyan miloddan avvalgi I - asrda butun Farg'onani, ya'ni Dovon davlati shahar qishloqlarini yayov kezib chiqqan. U o'z kundaliklarida Ershi va uning atrofidagi xalqlar, ularning urf-odatlarini, ekinlari, bog'-rog'lari haqida batafsil ma'lumotlar yozib qoldirgan. Ayniqsa, bu makon tog'lari haqida to'lib toshib yozgan. Demak o'sha paytda Asaka qadimgi Dovon davlatining poytaxtdan keyingi ikkinchi shahri bo'lgan. Bu yerda dunyoga mashhur samoviy otlar boqilgan. Fikrimizni dalili sifatida; „Asaka” jonli hind tilida „Suvoriylar”, „Otliqlar”, „Chavandozlar” degan ma'noni anglatadi. Tarixchi B.A.Litvinskiy „Assakana” zamirida qadimgi „sak” xalqi nomi ifodalangan bo'lsa kerak deb hisoblaydi. Bu fikrlarning yana bir tasdig'i sifatida mening qishlog'im Axtachini aytib



o'tishimiz mumkin. Atamashunos olim Suyun Qorayev o'zining „Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi “ deb nomlangan kitobida „Axtachi“ so'zi mog'ilcha bo'lib, ot tabibi, ot o'rgatuvchi degan ma'lumotlarni keltiradi. Xulosa qilib aytishim mumkinki, qishlog'im Axtachi qadimgi Dovon davlatining ikkinchi shahri bo'lgan Asakani yuragi hisoblangan. Mening qishlog'im va qishlog'im atrofida dunyoga mashhur samoviy otlar boqib ko'paytirilgan. Hozirda ham Axtachida 10 dan ortiq mahallalar bolib u yerda o'zbek, qirg'iz, rus va boshqa xalqlar o'zaro totuv va inoq yashamoqda. Bu yerning odamlari tanti, chapani va juda mehnatkash. Ular har ishda peshqadam. Chunki ular har ishga mehr bilan yondashadilar. Bu qishloq odamlari ilm-u fanda, sportda ham ancha ilg'ordirlar. Bu qishloqdan yetishib chiqqan olimlar, sportchilar O'zbekiston taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar. Masalan;

*Avulov Abdulhakim Musayevich* (1932-2015) 1932 yil 25 iyulda Andijon viloyati Asaka tumani Polvon mahallasida ziyolilar oilasida tug'ilgan. Uzoq yillar Andijon Davlat tillar pedagogika instituti(ADTPI) turli xil lavozimlarda faoliyat yuritgan. Juda ko'p chet davlatlarida va shaharlarida ilmiy ishlar olib borib, yurtimizda chet tillarining targ'ibotiga katta hissa qo'shgan. Masalan, Moskva, Leningrad va boshqa davlatlarda bo'lgan. 1973-yiida Bokuda asperanturani yakunlagan. Juda ko'p ilmiy maqolalar va kitoblar muallifidir. Avulov Abdulhakim umrining ko'p qismini ADTPI da professor sifatida yoshlarga ingliz tili fanidan dars berib o'tgan.

*Abdullayev Mahammadjon Abdullayevich* (1941-2010) 1941-yili 25-avgustda Andijon viloyati Asaka tumani

Obod ziyolilar oilasida mahallasida tug'ilgan. Andijon Davlat institutida 30 yil davomida kimyo fanidan talabalarga dars bergan. Abdullayev Mahammadjon kimyo fanllari nomzodi, bir nechta maqolalar, kitoblar muallifidir.

*Mamajonov Begmurod Dilmurodjon o'g'li* 1994 yil 27-sentabrda Andijon viloyati Asaka tumani Obod mahallasida ziyolilar oilasida tug'ilgan. Sportning kikkoks turi bilan doimiy shug'ullanib kelmoqda. Bir necha bor kikkoks sport turi bo'yicha O'zbekiston chempioni, Osiyo chempionati sovrindori. Mamajonov Begmurod qo'l ostida yoshlar kikkoks sport turi bilan shug'ullanib yuksak cho'qqilarga erishmoqdalar. Bularndan: Nazarov Ahadjonqori Abdumutal o'g'li kikkoks sport turi bo'yicha bir necha bor O'zbekiston chempioni va Osiyo chempioni hisoblanadi, Badalov Jamshidbek Erkinjon o'g'li kikkoks sport turi bo'yicha bir necha bor O'zbekiston chempioni, Yusupov Azizbek Anvarjon o'g'li kikkoks sport turi bo'yicha bir necha bor O'zbekiston chempioni hisoblanadi.

*Sotvoldi Rahimovich Rahimov* (1943-2017) 1943 yil Andijon viloyati Asaka tumani Fayziobod mahallasida ziyolilar oilasida tug'ilgan. Uzoq yillar Andijon Davlat tillar pedagogika institutida(ADTPI) turli hil lavozimlarda faoliyat yuritgan. Sotvoldi Rahimov ADTPI 1965-1968 yillarida ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi. 1968-1970 yillarda Moskva Davlat chet tillari instituti stajor tadqiqotchisi, 1970-1973 yillari shu institutining aspiranti, 1973-1974 yillari ADTPI ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi, 1973-1977 yillari chet tillar fakulteti dekani, 1977-1983 yillari ingliz tili leksikasi va stilistikasi kafedrasida mudiri,



dotsenti, 1983-1985 yilari Moskva tilshunoslik instituti doktoranti, 1985-1995 yillari ingliz tili leksikasi va statistikasi kafedrasida mudiri, dotsenti bo'lib mehnat qilgan. Keyinchalik uzoq yillar davomida ADU ingliz tili fonetikasi kafedrasida professor lavozimida ishlab keldi. Sotvoldi Rahimov Respublika ilmiy hayotida faol ishtirok etib 2 ta monografiya, 4 ta o'quv qo'llanma, 2 ta lug'at, 5 ta uslubiy qo'llanma, 300 dan ortiq tezis va ilmiy maqolalar muallifidir. Sotvoldi Rahimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti „Iste'dod jamg'armasining“, „Ustoz“ unvoniga sazovor bo'lgan. Bular faqat men bilgan fidoyilar xolos..

Bundan tashqari Axtachi qishlog'I odamlari dehqonchilikda ham yaxshi nom chiqara olishgan. Ularni bir so'z bilan „Bobodehqon“ deyish mumkin. Ayniqsa, ular yetishtirgan pomidor va bodiring butun vodiya mashhurdir. Axtachida 4 ta bog'cha, 4 ta maktab, maktab-internati kabi o'quv markazlarida yosh avlod, Vatan mehri bilan ulg'aymoqda. Chunki, bu xalqni ulug' o'tmishi, buyuk kelajaki, muqaddas Vatani va tadbirkor yo'lbo'shchisi bor. Men ham so'zim oxrida uzoq tarixga ega bo'lgan qishlog'da, betakror O'zbekistonda yashayotganimdan faxrlanaman va shu yurtga munosib farzand bo'lishga harakat qilaman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. „Asaka (shahar)“ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Birinchi jild, Toshkent, 2000-yil;
2. G.P.Fyodorov „Moya slujba v Turkestanskom krae XVII“, (1870-1910);
3. R.Sobirjon, O'.Sulaymonov, Asaka, Toshkent-1999.